

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari o‘tkaziladigan umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida E’LON

Hurmatli aksiyadorlar!

“Open bank” aksiyadorlik jamiyatining 2026-yil 23-aprel kuni soat 11:00 da Toshkent shahri Yunusobod tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 2-uy manzilida joylashgan binoda o‘tkaziladigan bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kun tartibiga Kuzatuv kengashining 2026-yil 15-apreldagi qaroriga asosan qo‘shimcha masalalar kiritildi.

Kun tartibi:

1. Bankning sanoq komissiyasi a‘zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. Bank Kuzatuv kengashi a‘zosining vakolatini muddatidan oldin tugatish hamda Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqarish.
4. Bank Kuzatuv kengashi a‘zosini saylash.
5. Bank Boshqaruvining raqamlashtirish bo‘yicha hisobotini eshitish va tasdiqlash.
6. Bankning Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.
7. Bankning yangi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ushbu faoliyat yuzasidan yangi kollegial organi tashkil etish.
8. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi a‘zolarini saylash.
9. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi nizomini tasdiqlash.
10. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

Aksiyadorlarni ro‘yxatga olish soat 10:30 dan boshlanadi va soat 10:55 da tugatiladi. Umumiy yig‘ilish o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun bank aksiyadorlari reyestri 2026-yil 31-mart holatiga va aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida qatnashish uchun 2026-yil 17-aprel holatiga tuziladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida qatnashish va ovoz berish uchun, aksiyadorlarda shaxsni tasdiqlovchi hujjat, aksiyadorlar vakillarida esa qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo‘lishi lozim.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ko‘rib chiqiladigan masalalar bo‘yicha axborotlar (materiallar) bilan Toshkent shahri Yunusobod tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 2-uy manzilida ushbu e‘lon berilgan kundan boshlab yig‘ilish o‘tkaziladigan kunga qadar soat 10:00 dan 17:00 gacha tanishish mumkin.

Elektron pochta manzili: office@openbank.uz

***Hurmat bilan,
“Open bank” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi***